

**ALEKS BANAYAN QALAMIGA MANSUB “THE THIRD DOOR“ ASARINI  
INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA SO‘ZMA-SO‘Z TARJIMA QILISH  
JARAYONIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI.**

**Iroda Yoqubova Shuhrat qizi**

Termizdavlatuniversitetitalabasi

**E-mail: [irodayoqubova2005@gmail.com](mailto:irodayoqubova2005@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.8437660>**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Aleks Banayan tomonidanyozilgan “The third door”, ya’ni “Uchinchieshik” asarining ingliz tilidan o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilish jarayonida duch kelingan muammolar va ularning tahlili haqida. Maqolada foydalanilgan transformatsiyalar haqida ham ma’lumot berildi.

**Kalit so‘zlar:** leksikologik tahlil, morfologik tahlil, sintaksis tahlil, orfografik tahlil, punktuatsion tahlil.

**THE ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE PROCESS OF WORD-FOR-WORD  
TRANSLATION OF THE WORK “THE THIRD DOOR” BY ALEX BANAYAN FROM  
ENGLISH TO UZBEK**

**Abstract.** This article is about the problems encountered in the process of word-for-word translation of “The third door” written by Alex Banayan from English into Uzbek and their analysis. The article provides information about the transformations used.

**Key words:** lexicological analysis, morphological analysis, syntactic analysis, orthographical analysis, punctuational analysis.

**АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ В ПРОЦЕССЕ ДОСЛОВНОГО ПЕРЕВОДА «ТРЕТЬЯ  
ДВЕРЬ» АЛЕКСА БАНАЯНА С АНГЛИЙСКОГО НА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫК.**

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблемам, возникшим в процессе дословного перевода произведения Алекса Банаяна «Третья дверь» с английского на узбекский язык, и их анализу. В статье также представлена информация об используемых преобразованиях.

**Ключевые слова:** лексикологический анализ, морфологический анализ, синтаксический анализ, орфографический анализ, пунктуационный анализ.

**KIRISH**

Aleks Banayanning “Uchinchieshik” asari Amerika tarixidagi eng yosh ijodkorning eng ko‘p sotilgan biznes mavzusidagi asaridir. “Uchinchieshik” asari Banayanning eksponentsial o‘shish va muvaffaqiyatning aniq tafakkurini ochish uchun qilingan yeti yillik izlanishlari haqida hikoya qiladi. Ushbu kitobo‘ndan ortiq tillarga tarjima qilingan. Asar so‘zma-so‘z tarjima jarayonidan foydalanilgan. Quyidagi maqolada asar tarjima qilish jarayonidagi qiyinchiliklar va muammolar yoritilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Ushbu maqolani yozishda ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda izlanishning chog‘ishtirma, qiyosiy, tahliliy, statistik metodlaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA**

Mazkur asarniing ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'plab transformatsiyalarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Jumladan, leksikologik transformatsiyalar. Hozir ularni gaplar misolida asoslab o'tamiz:

*"A treasure chest of wisdom... knowledge that can be used by anyone, anywhere, who wants to take their journey further... Banayan has become one of the most equipped guides to help you climb higher mountains in your life."*[Shawn Achor, „The Happiness Advantage and Big Potential"]

„Donolikning xazinasandig'i...bilimdan sayohatini davom ettirish nixohlagan istalgan odam istalgan joyda foydalanaoladi...Banayansizga hayotingizdagi balandroq tog'larga ko'tarilishingizga yordam beruvchi eng ko'p foydalanilgan qo'llanmagaaylandi. "**Leksikologiya** – tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan birtilning leksikasini o'rganuvchi bo'limdir. So'zning atash ma'nosini o'rganadi. Yuqoridagi gapdagi *"equipped guides"* so'zi tarjima jarayonida *"foydalanilgan qo'llanma"* deb tarjima qilingan.

Bu leksikologik transformatsiyaga mos keladi. Ya'ni ushbu so'zning ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda *"jihozlangan yo'riqnomalar"* deb tarjima qilingan bo'lardi. Ushbu so'zga biroz bo'yoqdorlik qo'shildi, sababi kitobxon ushbu jumlaning o'qiyotganda g'alizlikni his qilmasligilozim. Agar so'z to'g'ridan-to'g'ri, o'z holicha tarjima qilinganda gap mazmuni gaputur yetkazilgan bo'lardi.

**Morfologik transformatsiya:** „Unlike any business book I have read. *"The Third Door"* is an exhilarating thrill ride of hope, joy, ambition, and self-discovery. I cheered out loud, and at different points, tears trickled down my face... *"The Third Door"* motivated me to turn up the volume in my life... A triumph". [Maya Watson Banks, Director of marketing at Netflix] „Men o'qigan istalgan biznes kitobdan farqli ravishda, *"Uchinchieshik"* umid, shodlik, orzu-istak va o'zini kashf qilishning xursand qiluvchi, zavqli sayohatidir. Men baland qichqirardim va ba'zi paytlarda yuzimdan ko'zyishlar tomchila boqardi... *"Uchinchieshik"* menga hayotimda shuholatga yetib kelishimga sabab bo'lgan...G'alaba...**Morfologiya** – 1) tilning morfologik qurilishi; 2) so'z shakllari haqida ta'limot. Birinchi ma'nosida obyektning anglatsa, ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu obyektning o'rganuvchi bo'limini bildiradi.

Ushbu jumlaning morfologik transformatsiya usuli bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, gap morfologik transformatsiyaning barcha qoidalari bo'yicha tarjima qilingan. Ya'ni ingliz tilidagi ot o'zbek tiliga ham tarjima jarayonida ot bo'lib tarjima qilingan. Ushbu gap morfologik transformatsiyaning til me'yorlariga to'liq mos kelgan holda tarjima qilingan. Misol uchun *"book"* so'zi o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida *"kitob"* deb tarjima qilingan. Ya'ni ot so'zi ot bo'lib kelgan.

**Sintaksis transformatsiya:** **Sintaksis-** grammatikaning so'zlarni so'z birikmalari va gaplarga, soda gaplarni esa qo'shma gaplarga birikish usullarini o'rganuvchi, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi, o'zaro ta'sirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi bo'limi. „Once you start reading, you can't stop." [Johan Berger, „Contagious: Why Things Catch on"] *"Bir marta o'qisangiz, o'zingizni to'xtataolmaysiz."* Ushbu gapni sintaksis transformatsiya usuli bilan tahlil qilsak, gap ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda ba'zi so'zlar tushurilib qolgan, ba'zilari esa almashgan.

Agar ushbu gap o'zbek tiliga ketma-ket tarjima qilinganda gap ma'nosi chiqmagan va uslubiy bo'yoqdorlikka ham putur yetkazilgan bo'lardi. Chunki ushbu gap ingliz tilida to'g'ri gap

bo'lishi mumkin. Ammo o'zbek tilida ushbu gap xato sanaladi. Tushurib qoldirilgan so'zlarga misol aytadigan bo'lsak, "start" ya'ni tarjimasi "boshlamoq" so'zi tushurilib ketilgan. Aslida bu so'z qo'ysa ham bo'ladi, ammo uslubiy bo'yoqqa ko'proq e'tibor qaratildi va gapni ta'sirliroq chiqishi uchun ushbu so'zni tashlab ketildi. So'z almashtirish usuliga misol sifatida "o'zingiz" degan so'zni olishimiz mumkin. Chunki asl kitobda bunaqa so'z yo'q. Bu so'zni bekorga qo'shilmagan. Asl tarjima tildagi "you"so'zi "yourself" deb tarjima qilindi. Ya'ni so'z almashtirish usulidan foydalanildi. [3,54-b.]

**Punktuatsion transformatsiya:** **Punktuatsiya** – tinish belgilarining qo'llanish me'yorlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi. "Unlike any business book I've read. The Third Door is an exhilarating thrill ride of hope, joy, ambition, and self-discovery." [Maya Watson Banks, Director of marketing at Netflix] "Men o'qigan istalgan biznes kitobdan farqli ravishda, UCHINCHI ESHIK umid, shodlik, orzu-istak va o'zini kashf qilishning xursand qiluvchi zavqli sayohatidir." Ushbu gaplarni tarjima jarayonida bitta gapga aylantirildi. Ya'ni ikki gapni ajratib turuvchi nuqta o'rniga vergul tinish belgisidan foydalanildi.

Lekin bu bilan gap mazmuniga putur yetkazilmagan, aksincha, jumla yanada jozibali bo'lib, bo'yoqdorlik kasb etgan. **Orfografik transformatsiya:** **Orfografiya** – adabiy tilning to'g'ri yozish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo'lim. "Once you start reading, you can't stop." [Johan Berger, Contagious: Why Things Catch On] "Bir marta o'qisangiz, o'zingizni to'xtata olmaysiz." Ushbu jumlaning orfografik transformatsiya usuli bo'yicha tahlil qilsak, gap morfologik transformatsiyaning barcha qoidalarini bo'yicha tarjima qilingan.

#### XULOSA

Har bir tarjimon, albatta, biror asarni tarjima qilayotganda turli xil muammolarga duch kelishi mumkin. Tarjimon nihoyatda mas'uliyatli bo'lishi va asar tarjimasiga jiddiy qarashi lozim. Chunki asar muallifining aytmoqchi bo'lgan fikrini yetkazib bera olmasligi mumkin. Shuning uchun asar mavzusi va uning nima haqida ekanligini yaxshilab, sinchiklab o'rganib chiqishi kerak, ya'ni asar tarixidan xabardor bo'lishi lozim. Tarjimonning so'z boyligi keng bo'lishi darkor, negaki u asarda uchragan so'zlarni bir so'z bilan tarjima qilmasdan sinonimlardan ham samarali foydalana bilishi kerak. Bu asarni sof, qiyinchiliklarsiz o'qilishiga, kitobxonning medasiga tegib qolmasligiga yordam beradi. Hamda kitobxonda asar davomini o'qishga qiziqishini yanada oshiradi.

#### REFERENCES

1. SolijonovJuraaliKamoljonovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4,), 221–229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
2. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies(CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
3. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'limfidoyilari, 18(5), 32-37.

4. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
5. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JKROULINGNING, GARRIPOTTERVA AFSUNGARLARTOSHI' ROMANIDAGISE HRGARLAROBRAZI NI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIVTAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/21812454-2022-3-176-180>